

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat
attestatsiya sinovi**

DASTURI

2023/2024 o'quv yili

Tuzuvchilar:

B.A.Kamalov
A.A.Nazarov
M.R.Qoriyev

Ekologiya kafedrası professori, g.f.d.
Ekologiya kafedrası dotsenti, g.f.d.
Ekologiya kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Taqrizchilar:

E. Ro'zmatov

Andijon davlat universiteti, Ekologiya botanika kafedrası dotsenti, b.f.n.

T. Karimboyev

Agroximlaboratoriya taxlil markazi direktori o'rinbosari, q/x.f.n.

Q. So'pjonov

O'zbekiston Ekologik Harakati Namangan viloyati hududiy bo'linmasi rahbari

5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Ekologiya kafedrasining 2024-yil 25 yanvardagi № 6-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



S.T.Abdurahmanov

5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil 18.03.24dagi № 2-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Kengash kotibi



A.To'xtaboyev

I. UMUMIY OIDALAR

1. 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom, 2018 yil 10 sentyabrdagi 20-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalari", 2019 yil 4 oktyabrdagi 892-sonli, buyrug'i bilan tasdiqlangan 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" hamda № V60710400-19 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan o'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2023/2024 o'quv yilida 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklda o'tkaziladi.

7. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
- kasbiy faoliyatga;
- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

BIOEKOLOGIYA.

- Populyasiyalar ekologiyasining asoschisi kim?
- Populyasiyada individlarning joyda taqsimlanishi necha xil bo'ladi?
- Hayot muxitlari necha xil bo'ladi?
- Quyidagilarning qaysilari populyasiyaning statik ko'rsatgichlariga kiradi?
- Populyasiyaning o'z- o'zining boshqarish xususiyati qanday ataladi?
- Yashab qolish egri chizig'ining necha tipi farq qilinadi?
- Organizmlarning tashqi muxit sharoitlariga moslashuvi nima deyiladi?
- Ayrim turlarning yashab turgan muxit bilan munosabatini va unga moslashganligini ekologiyaning qaysi bo'limi o'rganadi?
- Hayotning tuzilish darajalari, yani, biologic spektr kim tomonidan va qachon tuzilgan?
- Ekologik valentligi keng bo'lgan tirik organizmlar nima deyiladi?
- Ekologik valentligi tor bo'lgan tirik organizmlar nima deyiladi?
- O'simliklarning hayotiy shakllari Raunkiye bo'yicha necha xil bo'ladi?
- Ekotizimlar necha xil bo'ladi?
- Tabiatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
- Ma'lum joydagi tirik organizmlarning umumiy og'irligi nima deyiladi?
- Cho'llarda o'sadigan o'simliklarda barglarning tikanlarga aylanishi qnday moslasish hisoblanadi?
- Tirik organizmlarning chidamlilik chegarasi nima deyiladi?
- Tolerantlik qonuni kimga tegishli?
- Minimum qonuni kimga tegishli?
- Yuqori haroratga moslashgan o'simliklar nima deyiladi?
- Jinsiy yetilgan, ko'payishga qobiliyatli individlar orasida erkak va urg'ochi organizmlarning nisbati qanday jins tuzilmani hosil qiladi?

- Ekologiya – bu ekosistemalar biologiyasidir». Bu fikr qaysi olimga tegishli?
- «Ekologiya- organizmlarning tarqalishi va zichligini belgilaydigan munosabatlar haqidagi fandır». Bu ta'rif qaysi olimga tegishli?
- «Ekologiya- organizmlarning tarqalishi va zichligini belgilaydigan munosabatlar haqidagi fandır». Bu ta'rif qaysi olimga tegishli?
- Ekologiyaga turli yondoshishlarning qaysi birida asosiy e'tibor ayrim turlarga qaratiladi?
- Gemipopulyasiya – bu ...
- Nima uchun ekosistemadagi bir turga mansub barcha individlar yig'indisini populyasiya deb qarash yetarli emas?
- Populyasiyaning qaysi ko'rsatkichlari ayrim olingan individlarga xos emas?
- Populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- Populyasiyadagi individlarning umumiy sonini aniqlash imkoniyatlari bo'lmaganda populyasiya soni qaysi ko'rsatkichni aniqlash orqali topiladi?
- Populyasiyaning statik ko'rsatkichlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- Yosh individlar hissasi qari individlarga nisbatan yuqori bo'lsa, populyasiyani kelesakda qanday o'zgarishlar kutadi?
- Individlarning populyasiya egallagan maydonda tarqalishi populyasiyaning qanday tuzilmasini ifodalaydi?
- Ikkilamchi jins tuzilma – bu ...
- Qaysi organizmda 200C dan past haroratda qo'yilgan tuxumlardan erkak individlar rivojlanadi?
- Bir yilda bitta avlod beradigan turlar qanday nomlanadi?
- Hayotida bir marta ko'payadigan o'simlik turlari qanday nomlanadi?
- Bakteriya populyasiyasida 200 ta individ bor. 5 soat davomida bu populyasiyada 700 ta yangi bakteriya paydo bo'lgan.
- Populyasiyadagi solishtirma tug'ilish qanday qiymatga ega?
- Ikkinchi tip yashovchanlik egri chizig'i uchun quyidagilarning qaysi biri xos?
- Qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar, ko'p yillik o'tchil o'simliklarda yashovchanlik egri chizig'ining qaysi tipi kuzatiladi?
- Populyasiya turg'un holatda bo'lishi, ya'ni yaratilgan avlod oldingi avlodni to'la qoplashi uchun avlod yaratish tezligining qiymati qanday bo'lishi kerak?
- Tabiiy tanlanishning ikki tipi (r- va K – tanlanish) haqidagi konsepsiyani qaysi olimlar taklif qilishgan?
- O'simliklarda hayot strategiyalarini qaysi olimlar ishlab chiqqan
- Atrof muhit resurslardan populyasiya oqilona foydalanishi uchun qaysi talablarga javob berish kerak

EKOLOGIK SIYOSAT.

- Nima uchun tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish zarur?
- Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya va turizm uqasida nimalar deyilgan?
- Ekologik turizmga izoh bering. .
- Ekoturizmning tabiatni asrashdagi roli nimada deb bilasiz?
- Ekologik sayohatchilar kimlar?
- Qaysi toifa ekoturistlarni tartibga solish oson - jismoniy shaxslarnimi yoki yuridik shaxslarnimi?
- Turizm bilan ekoturizmning nisbatini baholang?
- Nima uchun ekoturizm jadal su'ratlarda rivojlanmoqda?
- Ekoturizm boshsa turizm turlaridan asosiy farqlari nimalardan iborat?
- Qaerlarda ekoturizm boshsa turizmga nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan va nima uchun?
- Xavfsizlikni Siz qanday tushunasiz?
- Ekologik xavfsizlik nima?
- Ekologik xavfsizlikning turistik xavfsizlikdan farqi bormi?
- Respublikamizda qancha va qaerda qo'riqxonalar mavjud?
- Qo'riqxonalarda qanday sayyohlikka ruxsat etiladi?
- "Qozon - turizm" deganda V.Soy nimani inobatga olgan edi?
- Ekosan - tur " qanday kompaniya?
- Qo'riqxonaning mazmunini tushuntirib bering.
- Ekologik boshqaruv tushunchasi va tizimi haqida tushincha bering?
- Davlatning ekologik boshqaruvi nimalardan iborat?
- O'zini o'zi boshqarish organlari (fuqoralar yig'ini)ning ekologik funksiyalari sanab bering?
- Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaning ahamiyati.
- Ekologik-huquqiy javobgarlik tushunchasi nimadan iborat?
- Ekologik-huquqiy javobgarlik turlari sanab bering?
- Ekologik-huquqiy javobgarlik haqida ma'lumot bering?.
- Ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarliklarni qo'llash asoslari haqida ma'lumotlar bering?
- Yer muammolari va ularni yechish yo'llarining asosiy tamoyillari?
- Yerni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalarini sanab bering?
- Yer fondi toifalari bo'yicha yerni ekologik-huquqiy muhofaza qilish yo'llari?
- Yerning ekologik-huquqiy muhofaza qilishning mazmuni va mohiyati haqida tushincha bering?
- Yer muhofazasi va foydalanish ustidan nazorat masalalarini keltiring?
- Suv resurslari va ularni ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati?

- Suvni ekologik-huquqiy muhofaza qilish haqida ma'lumot bering?
- Halq xo'jaligining ayrim sohalarida suvdan oqilona foydalanish qoidalari.
- Yer osti boyliklarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish haqida ma'lumot bering?
- Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni ekologik-huquqiy muhofaza qilish zarurati.
- Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularning muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari nimalardan iborat?
- Konchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish?
- Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqlarini sanab bering?
- O'simlik dunyosi va uning ekologik-huquqiy muhofaza qilish zarurati.
- O'simlik dunyosini muhofazalashning huquqiy tartibi sanab bering?
- O'simlik dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlari?
- O'simlik dunyosini ob'ektlarini nazorat qilish va javobgarlik chora-tadbirlari?
- O'rmon-alohida ekologiya huquqining ob'ekti sifatida haqida ma'lumot bering?
- Ekologik ekspertizada tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qaysi jihatlarini birinchi o'rinda hisobga olish kerak?
- Noosfera rivojlanishi nima va u ekologik ekspertiza uchun qanday ahamiyatga ega?
- Barqaror rivojlanish nima? Uni ekologik ekspertiza amaliyotida qo'llash yo'llarini tushuntiring.
- Ekologik ekspertiza ekologik qonunlar, qoidalar, prinsiplaridan oqilona foydalanish zaruratini misollar bilan tushuntiring.
- Ichki dinamik muvozanat qonuni, tabiatni «qattiq» boshqarishning zanjirli (muhokama uchunqarrar) reaksiyasi qoidasi, tabiiylik prinsipi nima? Ularning mohiyatini tushuntirib bering.
- Ekologik ekspertizaning fundamental tushunchalarini ayting va ularni tushuntiring. «ekologik holat», «Ekologizatsiyalash», «ekologik zarar» va ular bilan bog'liq tushunchalar tizimining mazmuni va mohiyatini bilib oling.
- Ekologik vaziyatni baholashning qanday yo'llari bor?
- O'zbekistondagi hozirgi ekologik vaziyatni ekologik ekspertiza nuqtai nazaridan qanday baholash mumkin?
- Ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadlarida qanday tadbirlar amalga oshirilayotir?
- Tabiat komponentlarining ekologik holatini ta'riflang. Atmosfera havosi, suv, yer, biologik resurslar, yer osti boyliklari, chiqindilar (resurs-chiqindi-resurs sikli) ekologik xolati xususiyatlarini bilib oling.
- O'zbekiston viloyatlari va tumanlarida ekologik vaziyatning ahvoli va hududiy farqlarining sabablari, oqibatlari, ularni yaxshilash yo'nalishlarini tushuntiring.
- Ekologik vaziyat xolatiga ko'ra tumanlar qanday guruhlarga bo'linadi? Qoniqarli, keskin, favqulodda, xalokatli ekologik vaziyatdagi tumanlarning farqini tushuntiring.

- Orol dengizining qurishi sabablari, oqibatlar va undan kelib chiqadigan ekologik ekspertiza saboqlarini ta'riflang.

TUPROQ VA AGROEKOLOGIYA.

- Tuproq deb nimani aytiladi?
- Tuproqshunoslik fani qachon paydo bo'lgan?
- Tuproqshunoslik fanining Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarida rivojlanish tarixi?
- O'rta Osiyo va O'zbekistonda tuproq to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi allomalarning asarlarida keltirilgan?
- Tuproq biosferada qanday rol ni bajaradi?
- Tuproq predmeti, obyekti va uslublari?
- Tuproqshunoslik fanining xalq xo'jaligi va inson faoliyatidagi ahamiyati inmadan iborat?
- Tuproqshunoslik fanining hozirgi zamon dolzarb masalalari?
- Tuproq hosil bo'lish jarayonlari deganda nimani tushunasiz?
- Tuproq paydo qiluvchi faktorlar?
- Tuproq hosil qiluvchi omillarni ishlab chiqqan olimlar?
- Inson faoliyatining tuproq hosil bo'lishdagi roli?
- Tuproqning granulometrik tarkibi deganda nimani tushuniladi?
- Granulometrik tarkib nimaga bog'liq bo'ladi?
- Dala va laboratoriya sharoitida tuproqning granulometrik tarkibi qaysi usullar yordamida aniqlanadi?
- Tuproqning granulometrik tarkibiga binoan tavsiflash.
- Tuproq granulometrik tarkibining fizik xossalarga va unumdorlikka ta'siri.
- Birlamchi va ikkilamchi minerallar tuproqda qanday paydo bo'ladi?
- Birlamchi va ikkilamchi minerallarning kristallografik tuzilishi, kimyoviy tarkibi, aniqlash usullari?
- Minerallarning tuproq fizika-mexanik xususiyati va unumdorlikka ta'siri?
- Tuproq hosil bo'lish jarayonida minerallarning o'zgarishi va tasnifida foydalanilishi?
- Tuproq tarkibidagi makro va mikroelementlar qayerdan paydo bo'ladi?
- Tuproq kesmasi va qatlamlarida kimyoviy elementlar to'planish jarayoni?
- Yalpi va harakatchan moddalar deganda nimani tushunasiz?
- Makro va mikroelementlarni aniqlash usullari va tuproq donadorligiga ta'siri?
- Tuproqda gumus qanday paydo bo'ladi?
- Gumusning strukturasi va kimyoviy tarkibi, hamda tuproq unumdorligini oshirishdagi ahamiyati?
- Tuproq tarkibidagi gumusni aniqlash usullari?
- Gumus to'g'risida tadqiqot olib borgan olimlar?
- Tuproqda suv qayerdan paydo bo'ladi?

- Tuproq suvini tekshirish tarixi va uning turlari hamda kategoriyalari?
- Tuproq suvining fizik xossa va kimyoviy tarkibga ta'siri?
- Tuproq tarkibidagi suvni o'rganish usullari?
- Tuproq eritmasi to'g'risida tushuncha
- Tuproq eritmasini aniqlash usullari.
- Tuproq eritmasining fiziko-mexanik xususiyatlari va unumdorlikka ta'siri.
- Tuproq tarkibida havo qanday paydo bo'ladi?
- Tuproq havosining tarkibi?
- Tuproq havosining tirik organizmlariga, fizik xosalariga va kimyoviy tarkibiga ta'siri.
- Tuproq havosini aniqlash usullari.
- Tuproqning singdirish sig'imi deb nimaga aytiladi?
- Tuproqning singdirish sig'imini tekshirgan olimlar?
- Tuproq singdirish sig'imining suv-fizik xossa va kimyoviy tarkibga ta'siri?
- Tuproqdagi xim-biologik jarayonlarning muhit bilan bevosita bog'liqligi?
- Tuproq kislotalik va ishqoriylik muxitini aniqlash usullari.
- Tuproqning oksidlanish va qaytarilish sharoiti deganda nimani tushunasiz?
- Oksidlanish-qaytarilish sharoitining tuproqni fizik xossalari va kimyoviy tarkibi bog'liqligi?
- Oksidlanish va qaytarilish potensialining tuproq sharoiti bilan bog'liqligi?
- Tuproqdagi oksidlanish va qaytarilish jarayonini o'rganish usullari?
- Tuproq radioaktivligi deganda nimani tushunasiz?
- Tuproq radioaktivligi qanday hosil bo'ladi?
- Radioaktivlikni aniqlash usullari?
- Radioaktivlikning tuproq xossasi, tarkibi va unumdorlikka ta'siri?
- Issiqlik manbalari va ularning tuproq xossalari tarkibiga qanday ta'sir qiladi?
- Tuproqning xajm, solishtirma, effektiv issiqligi deb nimaga aytiladi?
- Tuproq issiqlikni qanday o'zlashtiradi?
- Issiqlik balansini aniqlash. 1. Tuproqning fizika-mexanik xossalari deganda nimani tushunasiz?
- Tuproqning plastikligi, tuzilishi, xolati, yopishqoqligi, ilashimligi nima?
- Tuproqning fizik jihatdan yopishish, cho'kish va bo'kish xolatlari?
- Tuproqning fizika-mexanik xolatini o'rganish usullari.
- Tuproq donadorligi deganda nimani tushunasiz?
- Tuproq donadorligini oshiruvchi omillar?
- Tuproq donadorligining suv, havo va ozuqa rejimiga ta'siri?

TABIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA MUQOBIL ENERGETIKA

- Insoniyat taraqqiyotining 2- bosqichida qanday o'zgarish kuzatiladi?
- Qaysi bosqichdan "Yangi Dunyo"ni o'zlashtirish boshlandi?

- Qaysi regionda ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishi xilma- xil tabiiy resurslarni o'zlashtirish sur'atlarini keskin tezlashtirdi?
- Tuproqlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati.
- Tuproq eroziyasi, tuproqlarning sho'rlanishi, ifloslanishi, kimyolanishi va cho'lga aylanishidan saqlash.
- O'zbekistonning biologik resurslari va ulardan foydalanishning ekologik muammolari.
- Alohida muhofaza qilinadigan hududlar va ularning ahamiyati. "Qizil kitob".
- Yer osti qazilma boyliklarini o'zlashtirish va uning tabiatga ta'siri.
- O'zbekistonning mineral va xom-ashyo boyliklaridan foydalanishning ekologik muammolari.
- Ekologik jinoyatlar va ular uchun javobgarlik masalalari.
- Ekologik monitoring.
- Ekologik ekspertiza.
- Asosiy ifloslovchi modda va birikmalar tarkibi.
- O'zbekistonda atmosferaning ifloslanishi va uning oldini olish muammolari.
- Tuproqdan foydalanish va muhofaza qilish.
- Orol va Orol bo'yi muammolari.
- Inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'sirini izohlang.
- Tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
- Tabiatni muqofaza qilish jihatlarini sharhlab bering.
- Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro'y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi nimalardan iborat?
- Fan-texnika inqilobi resurslarni o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatdi?
- Tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar tushunchalarini izohlang?
- Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro'y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi nimalardan iborat?
- Fan- texnika inqilobi davri qachon boshlandi?
- "Olimlarning hisob- kitoblariga ko'ra, hozirgi vaqtda inson tomonidan o'zlashtirilgan antropogen landshaftlar dunyo quruqligining qancha qismini tashkil etadi?
- Quruqlikning qancha qismidagi tabiiy landshaftlar tubdan o'zgartirilgan?
- Insonning o'ziga yashash muhitini yaratishi fanda nima deyiladi?
- Inson hayoti va faoliyati davomida bevosita foydalanadigan barcha turdagi tabiiy ne'matlarga nima deyiladi?
- Tabiiy resurslarning turlari to'g'ri berilgan qatorni toping?
- Tabiiy resurslarning umumiy miqdor ko'rsatkichlari bilan ulardan foydalanish miqdori o'rtasidagi nisbat- bu ...?
- Tabiiy resurslar kelib chiqishi, ishlatilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- Tiklanishi mumkin bo'lgan tabiiy resursni toping.
- Tugamaydigan tabiiy resursni toping.
- And tog'lari mamlakatlari qanday tabiiy boyliklarga ega?

- Neft va gazga boy bo‘lgan hududni toping.
- Tabiiy resurslarning deyarli barcha xillari bilan ta‘minlangan davlatlarni toping.
- Jahonning uchinchi xil mamlakatlari, jumladan, Andorra, Okeaniya va Karib havzasi mamlakatlari qanday turdagi mineral boyliklarga ega emas?
- Tabiatda minerallar holida uchraydigan tabiiy boyliklar nima deyiladi?
- Suvni muhofaza qilish uchun qo‘llaniladigan tadbirlar haqida aytib bering.
- O‘zbekiston suv resurslariga baho bering.
- Suv resurslari, ularning tarkibi va tuzilishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- Er fondi nima?
- Sizningcha, biologik xilma-xillik ta‘minlanishining asosiy sabablari nimada?
- Biologik turlarning kamayib ketishi oqibatlari qanday omillar asosida yuzaga keldi?
- Biologik turlarni saqlab qolish borasidagi amaldagi tadbirlarga izoh bering.
- Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro jihatlari nimalardan iborat?
- Ekologik muammolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan asosiy vazifalar qaysilar?
- Hozirgi vaqtda mineral resurslarning qancha turidan xo‘jalik maqsadida foydalanilmoqda?
- Jahonda geologik zaxiralari katta bo‘lgan mineral yoqilg‘i resursini toping.
- Mineral yoqilg‘i geologik zaxiralarning umuniy prognozi qancha?
- Mineral yoqilg‘i boyliklari necha yilga yetishi ko‘zda tutilmoqda?
- Asosiy ko‘mir konlari yer kurrasining qaysi yarimsharida tarqalgan?
- Janubiy yarimshardagi asosiy ko‘mir havzalari qaysi davlatda joylashgan?
- Rangli va qora metall konlariga boy davlatlarni toping.
- Qaytalanuvchi, qaytalanmaydigan energiya manbalari.
- Ana‘naviy va noana‘naviy energiya manbalari.
- Issiqlik, gidravlik va gidroakkumulyasion, to‘lqinlar, geotermal, atom, quyosh, Shamol, biomassa va boshqa energiya turlari
- O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan noananaviy energiya manbalari.
- Kimyoviy elementlar energiyasidan foydalanish asoslari.
- Galvanik elementlar energiyasini elektr energiyasiga aylantirish qurilmalari.
- Yoqilg‘i elementlari.
- Elektrokimyoviy generator.
- Quyosh energiyasining elektr energiyasiga aylanishining fizikaviy asoslari.
- Shamol energetikasi va undan foydalanish asoslari.
- Namunaviy shamol generatorining tuzilishi bilan tanishish.
- Shamol tezligini tahlil qilish usullari.
- Geotermal energiya manbalari tahlili.
- Geotermal energiyadan foydalanishning asosiy prinsiplari.

- Termal energiyadan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish.
- Biomassa energiyasi.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari(QTEM). QTEMning umumiy va texnik salohiyati.
- Tabiiy gaz sohasi.
- Ko'mir sanoati: toshko'mir, pista ko'mir.
- Atom energetikasi.
- Shamol energiyasi.
- Quyosh energiyasi.
- Hidroenergetika.
- Bioenergetika.

IJTIMOIIY EKOLOGIYA

- «Ijtimoiy ekologiya» fanining predmeti nima?
- Boshqaruvchilik roli konuni va mazmuni nimadan iborat?
- «Ijtimoiy ekologiya» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.?
- Tabiiy resurslarni kamayib ketish sabablari nimada?
- Ekotizimga tahsir etuvchi kaysi omillarni bilasiz?
- Inson va atrof-muhit tizimidagi o'zaro munosabatlar xususiyati sog'lom insonga muhit omillarining o'zaro ta'siri mexanizmi, endemik kasalliklar.
- Atrof-muhitning salbiy ta'siriga inson adaptatsiyasi, atrof-muhit holati va O'zbekistonda inson salomatligi.
- Atrof-muhit holatini baholash metodlari va inson salomatligi
- Ijtimoiy ekologik muhit faoliyatida qishloq xo'jaligining ahamiyati.
- Ijtimoiy ekologik muammolarni xalq etishda fan va texnikadan foydalanish samaradorligining oshirish muammolari.
- Mamlakatimizning ijtimoiy ekologik xolatiga ishlab-chiqarish tarmoqlarining ta'siri.
- Organizmlarning ekologik omillarning ta'siriga moslashuvi tirik turga xosligi
- Tabiatda ekotizimga ta'sir qiluvchi antropogen omillarining turlari va oqibatlari.
- Inson hayot muhitining sifati.
- Tabiat muhofazasining inson salomatligiga ijobiy ta'siri Ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishining inson moslanishiga ta'siri.
- Mintaqaviy ijtimoiy-ekologik muammolar turlari va ularning tasnifi
- Antropogen omil turlarini aytib berding?
- Jamiyat rivoji harakatining eng muvofiqligi konuni nima?

- Suv resursini ifloslantiruvchi manbalarga nimalar kiradi?
- Atmosfera havosi qanday omillar ta'sirida ifloslanib bormokda?
- Inson faoliyati natijasida paydo bo'ladigan ekosistemalar nima deb yuritiladi?
- Odamning tashqi muhitga ta'siri nima deyiladi?
- Ekologiyadagi ekosistema atamasini birinchi bo'lib kim asosladi?
- Ekologiya qaysi darajadagi tirik organizmlarni o'rganadi?
- Ekosistemalardagi asosiy funksiyalarni kaysi komponentlar va jarayonlar bajaradi?
- Inson faoliyat ta'sirida yer yuzida ko'plab flora va fauna vakillarining yo'qolib borayotgani. .
- Biosferadagi tirik organizmlarni saqlash va ularni kelajak avlodlarga qoldirishning asosiy yo'llari.
- Muhit harorati va uning inson organizmiga ta'siri.
- Insonlarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy moslashishlari.
- Insonlarni muhitga ekologik moslanishlari.
- Insonlarning va uning xar bir vakilining fiziologik, ekologik munosibligi, ularning muhitga rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan bioekologik xususiyatlari
- Halqaro ekologik hamkorlikdagi asosiy tendensiyalar.
- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ekologik muammolarini xal qilish borasidagi xalqaro xamkorligi
- Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlik tamoyillari. Asosiy metodologik tamoyillar. Insonning xayot muxitiga munosabati.
- Atrof- muhit monitoringi masalasi qachon vujudga keldi?
- BMTning atrof- muhit monitoringi masalasiga bag'ishlangan konferensiyasi qaysi shaharda o'tkazildi?
- Atrof- muhit muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy qo'mita- bu ...
- Monitoring deb nimaga aytiladi?
- Monitoring tashkil qilishning 3 ta bosqichi kim tomonidan taklif etilgan?
- Biosfera monitoringining asosiy vazifasi- bu ...
- YUNEP- bu ...
- YUNEPning bosh idorasi (shtab- kvartirasi) qaysi shaharda joylashgan?
- Atmosfera havosi va suv havzalarining ifloslanishi yurtimizda qaysi organ tomonidan nazorat qilinadi?
- Yerosti suvlarining ifloslanishi, noxush tabiiy- geografik jarayonlarning rivojlanishi mamlakatimizda qaysi davlat organi tomonidan nazorat qilinadi?
- O'zbekistonda tuproqning sho'rlanishi va gurunt suvlari me'yori, kollektor suvlarining minerallasuv darajasi ... tomonidan monitoring qilinadi.
- Atrof- muhitning inson salomatligiga ta'siri bilan bog'liq masalalar yurtimizda qaysi organ tomonidan monitoring qilinadi?
- Butun O'zbekiston miqiyosidagi barcha tashkilot va muassasalarning monitoring sohasidagi faoliyatini qaysi davlat organi boshqaradi?

- O‘zbekistonda kuzatish va nazorat ma’lumotlari qachon yig‘iladi?
- Mamlakatimizda yaylovlar qaysi usulda kuzatiladi va nazorat qilib turiladi?
- Respublikamizda quyidagi geografik obyektlardan qaysi birini monitoring qilish Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining vazifasi hisoblanadi?
- FAO- bu?
- Quyidagi qaysi davlat Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo emas?
- Ekosistema xillari

HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MUAMMOLARI

- Dunyo bo‘yicha “issiqlik samarasi” qachondan ko‘rina boshladi?
- Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga qanchani tashkil etadi?
- Yerdagi o‘rtacha harorat 1980- yili 1890- yilga nisbatan qanchaga ortdi?
- XX asr davomida, olimlarning hisobi bo‘yicha, okean sathi qanchaga ko‘tarilgan?
- Amerika olimlarining bashoratiga ko‘ra, qachonga kelib dunyo okeani sathi 1.4- 2.2 metrga ko‘tarilishi mumkin?
- XX asrning 50- yillaridan havoda freon gazlarining miqdori ko‘payganligi kuzatila boshladi. Freon gazlariga qaysilar kiradi?
- Ozon qatlami Yer yuzasidan qancha balandda joylashgan?
- Yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi qanday oqibatlarga olib keladi?
- “Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki deklaratsiyasi” qachon va nechta mamlakat tomonidan qabul qilindi?
- 1968- 1974- yillarda qaysi hududning sohil mintaqasida halokatli qurg‘oqchilik oqibatida daryolar qurib qoldi, namlik yetishmasligi natijasida yaylovlarning mahsuldorligi keskin kamaydi, cho‘l 100- 150 kilometrga savannaga bostirib kirdi?
- Hozirgi paytda inson faoliyati ta’sirida qancha maydonda cho‘l hosil bo‘lgan?
- Har yili dunyoda taxminan qancha yer to‘liq buzilib cho‘lga aylanmoqda?
- Har yili dunyoda sug‘oriladigan yerlarning qancha maydoni cho‘lga aylanadi?
- Cho‘llashishga qarshi kurashni muvofiqlashtiruvchi tashkilot qayerda faoliyat yuritmoqda?
- 1911- 1960- yillar davomida Orol dengizi maydoni qanchani tashkil etgan?
- Orol dengizining qurishi qachondan boshlandi?
- Orol dengizi rejimining o‘zgarishi kimning ma’lumotlari bo‘yicha berilgan?
- Hozirgi paytda Orol dengizining qurib qolgan qismi maydoni qanchani tashkil etadi?
- Orol dengizi sathini ma’lum bir balandlikda, ya’ni 33 metr balandlikda ushlab turish uchun unga har yili qancha suv tushib turishi lozim?
- Ozon qatlami Yerdagi hayotni qanday nurlardan muhofaza qiladi?
- Geoekologik muammolar va ularning turlari.
- Tabiiy omillar va antropogen omillar.

- Ero'ziya, defalatsiya, sho'rlanish, cho'llanish, botgoglanish, sel, ko'cnki, tog' qylashi, tuproq ko'chishi, zilzila va h.k.
- Geoekologik tadqiqot metodlari.
- Biosferaning tarkibi va uning xususiyatlari.
- Ekispeditsiya, statsionar, kameral, labarato'riya, distansio'n.
- Jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirining hozirgi davrdagi xususiyatlari va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosining dolzarbligi.
- Geoekologik prognozlashtirish.
- O'zbekistonda geoekologik vaziyatlarni o'zgarishining prognozi.
- Prognozlashtirish obektlari, prognozlashtirish turlari, geoekologik vaziyatlarning prognozli hususiyatlari.
- Tabiiy jarayonlarning o'zgarish yo'nalishlari
- Prognozlashtirish mehanizimi va prognoz natijalar

IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

14. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 (“a’lo”);

71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 (“yaxshi”);

55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 (“qoniqarli”);

54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 (“qoniqarsiz”).

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

15. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovlari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabanning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

V. ATTESTATSIYA SINOVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMA USLUBIY KO'RSATMALAR

16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kultiasov I.M., Axunov X.M.-O'simliklar ekologiyasi. T. O'qituvchi. 1980.
2. Наумов Н.П. Экология животных. Москва. «Высшая школа». 1963.
3. Чернова Н.М., Былова Л.М. –Экология. М. «Просвещение». 1981 й.
4. Muxamedov I.M., F.I.Inoyatova, S.D.Dushanбиеv, S.M.Rustamova, Sh.A.Xo'jaeva, S.Yu.Qurbonova, D.D.Sultonova.Tibbiyot mikrobiologiyasi. T.: Yangi asr avlodi NMMda tayyorlandi.2013.145b.
5. O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida Milliy ma'ruza (2002-2008 yy.). – T.: Chinor ENK, 2006. 131 b.
6. Ekologiya huquqi. Darslik. // Mas'ul muharrir M.B. Usmonov. –T.: TDYI, 2006. 361 b.
7. Nigmatov A.N. Ekologiya huquqi: sxemalar va tushunchalarda (o'zbek va rus tillarda). O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisod va huquq dunyosi, 1999 148 b.
8. Nigmatov A. O'zbekiston Respublikasining Ekologiya huquqi. Darslik. – T.: TDYuI nashriyoti, 2004. - 320 b.
9. Xolmo'minov J.T. Ekologiya va qonun. –T.: “Adolat”, 2000. 352 b.
10. Boboxo'jayev I., Uzoqov P. – Tuproqshunoslik. Toshkent. 1995
11. Волубуев В.Р. Экология почв. Боку. 1963
12. Добровольский Г.В., Никитин Е.Д. Функции почв в биосфере и экосистемах М., 1980
13. Zokirov T.S. Paxta dalasi ekologiyasi. Toshkent. 1991
14. Raximov T.U. Umumiy ekologiya Toshkent. 2000
15. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. Toshkent. 2006
16. Ergashev A.E. Umumiy ekologiya. Toshkent. 2003
17. Ergashev A.E. va boshq. Agroekologiya. Toshkent. 2006
18. Tuproqlarni ifloslanish muammolari va muxofaza qilish tadbirlari // Abdraxmonov T., Jabbarov Z. O'quv qo'llanma (elektron varianti) T.:Universitet. 2007.
19. Tursunov X.T., Rahimova T.U. Ekologiya .-T.: “Chinor ENK”, 2006.
20. Чернова Н.М., Билова А.М. Экология просвещение М. 1988.
21. Одум.Ю. Экология в 2 томах М. Мир 1986.

22. Nigmatov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. –Toshkent.: “Gofur Gulom”, 2003.
23. Valukonis Yu., Murodov O., Murodov Sh. Osnovy ekologii. T. «O'qituvchi». 2001.
24. To'xtaev A.S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. «O'qituvchi». 1994.
25. To'xtaev A.S. Ekologiya. T. «O'qituvchi». 1998 y.
26. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. «O'qituvchi». 1994.
27. P.S. Sultonov, B.P. Ahmedov «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari». Toshkent. «G'.G'ulom» nashriyoti. 2006 y.
28. X. Tursunov Ekologiya. Toshkent. “O'qituvchi” 2009 y.
29. Ekologiya xabarnomasi. Jurnal sonlari

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Бекназаров Р.У., Новиков Ю.В. Охрана природа. Т. «Укитувчи». 1995.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 2 tom O'simliklar, T.: «Chinor ENK», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 2 tom Xayvonot olami, T.: «Chinor ENK», 2003.
4. Республика Узбекистан: Сохранение биологического разнообразия. Национальная стратегия и план действий. Ташкент. 1998.
5. Saidov A. O'zbekistonda turizm: Istiqbol muammolar. -T.: Mehnat, 1992.
6. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. -T.: ЎМЭ, 2001.
7. Сергеева Т.К. Экологический туризм. –М.: Финансы и статистика. 1998
8. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, 2003.
9. Namidova O.H. O'zbekistonning ekoturistik salohiyati. Monografiya. -T.:
10. Holmo'minov J.T. Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik huquqiy muammolari. T. "Falsafa va huquq". 2009. 240 b.
11. Yer qonunchiligini takomillashtirish muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent: TDYuI. 2005. 243 b.
12. Rajabov N, Sh. Ekologik me'yorlarning ekologik – huquqiy muammolari: Monografiya. Mas'ul muharrir M.B. Usmanov. –Toshkent: TDYuI, 2007. -142 b.
13. Акимова Т.А., Хаскин В.В. Экология. - М.: “ЮНИТИ”, 1998.
14. Валуконис Г.Ю., Мурадов Х.О. Основы экологии. И. Общая экология книга И. - Т.: “Мехнат”, 2001.
15. Национальный доклад. //Осостоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов Республики Узбекистан. -T.: “Ўкитувчи”, 2002.
16. Национальный доклад «Осостоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов Республики Узбекистан». -T.: “Chinor ENK”, 2009.

Elektron manbalar

17. www.uznature.uz–O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi sayti.
18. www.un.org/esa/sustdev/–Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.
19. www.unesco.org–BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.
20. www.unep.org –BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi sayti.
21. www.undp.org –BMTning rivojlanish dasturi sayti.
22. www.unesce.org/env/esd/–BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti
23. www.worldresources.org –Jahon tabiiy resurslar sayti.
24. www.unfra.org –BMTning aholishunoslik dasturi sayti.
25. www.who.org – Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sayt
26. www.biodiv.org –Biologik xilma-xillik bo‘yicha sayt.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

18. Dasturda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta‘lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me‘yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me‘yorlar amal qiladi.

19. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e‘tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

20. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko‘rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

